Volume 1, Issue 2

KIBERJINOYATGA QARSHI YURTIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Omonova Mohinur Bahodir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy axborot vositalari huquqi" yo'nalishi magistranti.

Hozirgi 21- asr – globallashuv asrini texnika, ayniqsa, komputer va boshqaruv dasturlarisiz tasavvur etish qiyin. Bu texnika va texnologiyalar inson hayotini yanada farovonlashtirishga xizmat qilmoqda desak shubha yo'q, biroq yaqin orada eng katta xavflardan biri bo'lgan kiberjinoyatlarning yangidan yangi turlari paydo bo'ldi va tanganing bu tomoni insonlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Shuning uchun ham kiberjinoyatlarga qarshi mustahkam to'siq qo'yish maqsadida O'zbekistonda ko'plab chora tadbirlar ko'rilgan va ko'rib kelinmoqda.

Birinchi navbatda Respublikamizda kiberxavfsizlik qonunan mustahkamlanib qo'yilgan. 2022-yilda 25-fevralda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan.

Bundan tashqari kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun eng katta sa'y-harakatlardan biri sifatida Kiberxavfsizlik markazi ochilgani va faoliyatini boshlaganini aytishimiz mumkin.

Markaz dastlab O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi" nomi ostida faoliyatini boshladi. Bu markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-son Qarori binoan tashkil etilgan.

Keyinchalik 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245-son qarorini bajarish maqsadida Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi etib qayta tashkil etildi.

So'ngra, 2018-yilda faoliyat ko'lami yana o'zgarib, "Texnik ko'maklashish markazi" nomi bilan ish yurita boshladi va nihoyat 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq hozirgi nomni oldi va hozirgacha shu nom ostida faoliyat yuritib kelmoqda.

Ushbu kiberxavfsizlik markazi kiberhujum va kiberjinoyatlarning har yili yillik hisobotini berib bormoqda, bu ularning yillik hisobda o'sayotgani yoki aksincha kamayotganini aniqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari ushbu IIB qoshidagi markaz fuqarolar ishtirokidagi kichik kichik tadbirlar o'tkazib, ularga kiberjinoyatlar ularning turlari haqida tushuncha berishmoqda hamda kiberjinoyat xavfidan ularni ogoh etishmoqda. Bu kabi tadbirlarni chekka chekka viloyat, mahallalarga yetkazilishi quvonarli, albatta. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali ham kiberjinoyatlar kichik video-rolik shaklida jamoat transportlarida namoyish etilmoqda.

Kiberxavfsizlik markazi tomonidan kiberxavfsizlik to'g'risidagi yuridik ongni yoshlar o'rtasida yanada kengroq targ'ib qilish maqsadida Kiberxavfsizlik klubi tashkil etilgan va quvonarlisi, bu klub tez orada o'z mevasini berdi.

Azarbayjonning Boku shahrida "Cyber Summer School – 2023" nomli xalqaro yozgi maktabning kiber huquqi bo'yicha bo'lib o'tgan bilimlar bellashuvida O'zbekistonlik bir guruh yoshlardan tuzilgan kiberxavfsizlik klubi a'zolari Turkiya, Ozarbayjon, Isroil, Qirg'iziston hamda Qozog'istonlik yoshlarni ortda qoldirib, faxrli birinchi o'rinni egallashdi. Bu ham yurtimizda olib borilayotgan chora-tadbirlarning mahsulidir.

Bundan tashqari O’zbekiston boshqa davlatlar bilan kiberxavfsizlikni rivojlantirish maqsadida turli xalqaro tadbirlarda ishtirok etib, boshqa davlatlar bilan shartnomalar, memorandumlar imzolamoqda.
Bunga misol tariqasida joriy yilning uchinchi oktabr sanasida “Kiberxavfsizlik sammiti – Markaziy Yevroosiyo, CSS 2023” da ishtirok etganini olishimiz mumkin. Ikki kun davom etgan bu konferensiya Markaziy Yevroosiyo bo‘ylab milliy xavfsizlik markazlari, kiberxavfsizlik bo‘yicha yechimlar provayderlari, shuningdek texnologiyalarni namoyish etish va ilgari surish, yangi o‘zaro aloqalarni yaratishga xizmat qilishi ko’zda tutilgan.
Mana shu konferensiyada O’zbekiston “Kiberxavfsizlik markazi” hamda Turkmanistonning “Turkmenaragatnashiq” agentligi huzuridagi Davlat kiberxavfsizlik xizmati rahbarlari o’rtasida memorandum imzolandi. Ikkala tomon kiberxavfsizlik bo’yicha o’zaro tajriba almashish, kiberhujum, kiberjinoyatlarga qarshi kurashda yakdil bo’lishga kelishib olishdi.
Umuman olganda yuqoridagilarning barchasi davlatda kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun muhim qadamlardir. Biroq kiberjinoyat, kiberhujumlar osonlikcha va birdaniga yo’q bo’lib qolmaydi. O’ylashimcha, kiberxavfsizlikni ta’minlaydigan kuchli yangi dasturlar ishlab chiqish, dastlab uni kichik bir korxonada sinash, haqiqatdan ham kuchli bo’lsa butun mamlakat bo’ylab joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa avvalo mukammal dastur yarata oluvchi yetuk mutaxassislarni yetishtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Kiberxavfsizlik to’grisida”gi qonun // https://lex.uz/uz/docs/-5960604
2. Kiberxavfsizlik markazi // https://csec.uz/uz/company/
3. O’zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlikni ta’minlash 2022-yil hisoboti. Toshkent, 2022. – B 8.